

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

GULCHEHRA G‘AFFAROVA

**JAMIYATNING AXBOROTLASHUVI VA
MAFKURAVIY IMMUNITET**

O‘QUV QO‘LLANMA

CHIRCHIQ - 2024

UO‘K: 37.092.33

KBK 74.6

G‘affarova G. Jamiyatning axborotlashuvi va mafkuraviy immunitet.
O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “City of book”, 2024. – 300 b.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada jamiyatning axborotlashuvi va mafkuraviy immunitet muammolariga bag‘ishlangan bo‘lib, talabalarda axborot oqimi jadallashgan davrda axborotlarni to‘g‘ri qabul qilish hamda ularga munosib javob qaytara olish ko‘nikmalarini shakllantirishni, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish, uni kengaytirish va himoya qila olish, turli manipulyatsion xurujlarning asl mohiyatini anglash, yosh avlod hamda keng auditoriyaga yetkazib bera olish, mafkuraviy profilaktika jarayonlarida milliy qadriyatlarimizga tayangan holda ish olib borish, ijodiy va tanqidiy fikrlashning bugungi kundagi ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar bayon qilingan.

O‘quv qo‘llanma pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalariga mo‘ljallab tayyorlangan.

Taqrizchilar:

N.A. Nazarov - falsafa fanlari doktori (DSc), professor

I.B. Siddiqov – falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil 17 iyuldagi 314-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat
berilgan.

ISBN 978-9910-780-17-2

© G‘affarova G., Ibroximov F., 2023.
©“City of book”, 2023.

KIRISH

XX asr insoniyat tarixida misli ko‘rilmagan kashfiyot va ixtirolar asri bo‘ldi. Agar dastlab ixtiro va kashfiyotlarni amaliyotga joriy qilish uchun 50-100 yil sarflangan bo‘lsa, axborotlashgan davrda 10-20 va hatto 2-3 yilda ulardan foydalanish imkoniyati paydo bo‘ldi. Mavjud bilimlar doirasi shu darajada kengaydiki, bu axborot oqimi “tezlashuvi” jarayonini paydo qildi. Mazkur jarayon “axborotlashgan jamiyat” iborasida o‘z ifodasini topmoqda. Bu ijtimoiy turmushning barcha sohalarida keng imkoniyatlarni taqdim qilishi bilan birga ayni paytda, bugungi kun kishisini “axborot hujumi”dan himoyalashni taqozo etmoqda.

Bugungi davr yoshlardan yuksak intellektual salohiyatni talab etmoqda. Zero, O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismonan va ma’naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g‘oyat muhim vazifa bo‘lib qolmoqda”. Darahaqiqat, zamonaviy jamiyatimizning ijtimoiy sohalarining turli jabhalarida yuz berayotgan o‘zgarishlar, islohotlar, yangilanishlar avvalo, ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishga yo‘naltirilgan. Mazkur ijtimoiy voqeliklar, hodisalar ro‘yobga chiqishining negizida, jumladan, yoshlarda ijtimoiy faollik xususiyatlarini shakllanishi muammosi ham yotadi.

Ijtimoiy faollik yoshlarni nafaqat ijtimoiylashuvining muhim bo‘g‘ini, balki shaxsning mustahkam irodasini shakllantirish, o‘z-o‘zini anglash va baholash kabi shaxs kamolotining omillari bilan tavsiflanadi. Yoshlar kelajak egalari ekanliklarini, ularni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olgan holda bugungi kunda inson texnika yutuqlaridan oqilona foydalanishining alohida madaniy qolipini yaratish lozim. Taraqqiyotga xizmat qiluvchi bu manbalardan oqilona foydalanishni barchaga singdirish kun talabi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev

ta'kidlaganlaridek, "Zamonaviy sharoitlarda jahon fani va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda".

Shuni ta'kidlash kerakki, Amerika maktablarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish - o'z milliy manfaatlarini himoya qiluvchi vosita sifatida qaraladi. Buni tushunsa bo'ladi, zero, bugungi yosh avlodning g'oyaviy, mafkuraviy birligi - ertaga Amerika xalqining g'oyaviy, mafkuraviy birligini anglatadi-da!

Fan-texnikaning yutuqlari insoniyat foydasiga, ezgu maqsadlarga xizmat qilishi ijobiy holat. Lekin, virtual olamdan ayrim kuchlarning g'arazli niyatlarini amalga oshirish uchun foydalanayotganligi ham ayni haqiqatdir. Bunga qarshi har bir mamlakat o'z kelajagi haqida o'zi qayg'urib munosib kurash olib bormog'i bugungi kunning zaruratidir.

Mazkur o'quv qo'llanma talaba yoshlarga jamiyatning axborotlashuvi borasidagi bilimlarni chuqur singdirib o'z mustaqil fikrini mustahkamlashiga, mediasavodxonlik va axborot madaniyatining nafaqat o'zi, balki atrofidagi insonlarda ham yuksaltirishiga ko'maklashadi, deb umid qilamiz.

1-MAVZU. JAMIYATNING AXBOROTLASHUVI VA MAFKURAVIY IMMUNITET FANINING PREDMETI, MAQSAD- VAZIFALARI, AMALIY AHAMIYATI

Reja

- 1. Fanning predmeti va maqsad-vazifalari.**
- 2. Jamiyat va axborotlashgan jamiyat tushunchalarining talqini.**
- 3. XXI asrda fanning dolzarbliligi.**

Tayanch soʻz va iboralar.

Jamiyat, axborot, jamiyatning axborotlashuvi, mafkura, mafkuraviy faoliyat, mafkuraviy poligon, sogʻlom fikrli zamonaviy shaxs.

1. Fanning predmeti va maqsad-vazifalari

Dunyoda yangi shakldagi axborot makonining paydo boʻlishi va kompyuter texnologiyalarining yuqori surʼatda taraqqiy etishi oqibatida kishilar oʻrtasidagi axborot almashinuvi jarayonining yangi bosqichga koʻtarilishi insoniyat tafakkurida ham oʻzgarishlar sodir boʻlishiga olib keldi. Oʻzaro axborot almashishning cheksiz kengayishi, ijtimoiy-madaniy integratsiyalashuvning chuqurlashishi va jadallashishi esa yoshlarning jamiyatga ijtimoiylashuvida oʻziga xos murakkabliklar tugʻdirmoqda.

Albatta, XXI asrga ziyoli inson sifatida faqat axborot texnologiyalarini yaxshi bilgan taqdirda qadam qoʻyish mumkin. Chunki insonlarning faoliyati oʻz vaqtida axborotga ega boʻlganligiga va undan foydalana olganiga bogʻliq. Barcha sohalarning zamonaviy mutaxassisi axborotlashgan oqimlarida erkin harakatlanishi uchun axborotni olishni, qayta ishlashni va uni kompyuterlar, telekommunikatsiyalar va boshqa aloqa vositalarida foydalanishni bilishi zarur. Axborotni jamiyatning strategik yoʻnalishini, mamlakat rivojlanish darajasini aniqlaydigan resursi sifatida tushunish odatiy holga aylanmoqda. Axborotlashuv jamiyatni industrial rivojlanish koʻrinishidan axborotlashgan koʻrinishiga oʻtishini taʼminlaydi. Axborot bozori foydalanuvchilarga barcha